

FARG‘ONA SHAHAR UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIK NATIJALARI TAHLILI

N. MAMADJANOV

Farg‘ona Davlat Universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”
kafedrasi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

M. NAZIROV

Farg‘ona davlat universiteti jismoniy madaniyat va sport mashg‘ulotlar inazariyasi
yo‘nalishi, magistranti

ANNOTATSIYA

Farg‘ona shahar umumiy o‘rta ta‘lim maktablari yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy, tibbiy-biologik, psixologik tayyorgarlik-larini maxsus matematik–statistik usullarni yordamida pedagogik va ilmiy tahlil natijalari haqida ma‘lumot bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik darajasi, sport sinovlari, yugurish, uzunlikka sakrash, uloqtirish, tortilish, matematik–statistik usullar.

ABSTRACT

Information on the results of pedagogical and scientific analysis of physical, medical-biological, psychological preparation of high school students of Fergana using special mathematical and statistical methods

Keywords: physical fitness, fitness level, sports tests, running, long jump, throwing, pull-ups, mathematical and statistical methods.

KIRISH

Dolzarbli. Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, bolalar va o‘quvchi yoshlarning sport bilan ommaviy shug‘ullanishlari, faol dam olish shakllaridan foydalanishni ta‘minlovchi amaliy chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash respublikamiz davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan, «... butun ta‘lim tizimining eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta‘lim berish, ularni jismoniy va

ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir»¹. Shu bois 2017-2021 yillarda mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning "Ijtimoiy sohani rivojlantirish"ga yo'naltirilgan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ta'lim ilm-fan, tarbiya, adabiyot, san'at va sport sohalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas [1,2].

Mazkur masalalarni amaliy jihatlarini hayotga tadbqiq etish uchun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, uni ommaviy harakatga aylantirish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakillantirish maqsadida 2021-yil 17-iyunda tasdiqlangan yangi "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari test majmuasining joriy etilishi umumiy o'rta ta'lim, oliy o'quv yurtlari va jismoniy tarbiya harakatining boshqa bo'g'inlari oldiga yoshlarni har tomanlama jismoniy tarbiyalash, yuqori unumli mehnat qilish va vatan himoyasiga tarbiyalash vazifasini qo'yildi.

Tadqiqot maqsadi. Yuqori sinf o'quvchilarning "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari test majmuasi asosida jismoniy tayyorgarligining boshlang'ich darajasini tahlil qilish va metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Yuqori sinf o'quvchilarning "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari asosida jismoniy tayyorgarliklarini IV bosqich me'yorlarini topshirish natijalariga ko'ra boshlang'ich darajasini aniqlashda o'quvchilarning bajarish darajasini belgilash, shuningdek o'quvchilarning tayyorgarlik darajasining yangi me'yoriy talablariga muvofiqligini aniqlash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotning tashkil etilishi. Yuqori sinf o'quvchilarning harakat fazilatlarini rivojlantirish darajasini baholashning asosiy mezon sifatida biz Farg'ona shahar umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinov testlar majmuasi bo'yicha tanlab olingan testlar asosida pedagogik nazorat testlari ishtirok etdi. Pedagogik tadqiqotlar 2021 yilning dekabr oyidan 2022 yilning mart oyigacha yuqori sinf o'quvchilarning baland va past turnikda tortinish (marotaba), tennis to'pini uloqtirish (m), joyidan turib uzunlikka sakrash (sm), 60 m masafaga yugurish (daqiq) va 1 daqiqa davomida arg'amchida sakrash (marotaba) test me'yorlari bo'yicha randomizatsiya (tasodifiy tanlov) orqali 57 nafar o'g'il bolalar hamda 57 nafar qiz bolalarning natijalari tahlil qilindi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимишни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент – 2017 й. 145-б.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Yuqori sinf o'quvchilarning "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinov test ko'rsatkichlarini matematik statistik uslublari yordamida tahlil natijalari 1,2 - jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Farg'ona shahar umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari (o'g'il bola) uchun "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari test me'yorlari bo'yicha natijalari

№	Sinov test nomi	n	$\bar{x} \pm \sigma$	m	CV	I daraja		II daraja		III daraja	
						n	%	n	%	n	%
1.	Baland va past turnikda tortinish (marotaba)	57	8,15 ± 1,71	0,22	21,01	8	14,8	33	57,9	16	28,1
2.	Tennis to'pini uloqtirish (m)	57	33,22 ± 2,85	0,37	8,58	5	8,77	27	47,36	25	43,85
3.	Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	57	189,2 ± 12,48	1,65	6,60	9	15,78	23	40,35	25	43,85
4.	60 m masafaga yugurish (daqqa)	57	9,6 ± 0,36	0,048	3,79	9	15,78	33	57,89	15	26,31
5.	1 daqiqa davomida arg'amchida sakrash (marotaba)	57	85,77 ± 6,26	0,82	7,30	25	43,85	27	47,36	5	8,77


2-jadval

Farg'ona shahar umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari (qiz bola) uchun "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari test me'yorlari bo'yicha natijalari

№	Sinov test nomi	n	$\bar{x} \pm \sigma$	m	CV	I daraja		II daraja		III daraja	
						n	%	n	%	n	%
1.	Baland va past turnikda tortinish (marotaba)	57	8,15 ± 1,71	0,22	21,01	8	14,8	33	57,9	16	28,1

2.	Tennis to'pini uloqtirish (m)	57	33,22 ±2,85	0,37	8,58	5	8,77	27	47,3 6	25	43,8 5
3.	Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	57	189a,2 ±12,48	1,65	6,60	9	15,7 8	23	40,3 5	25	43,8 5
4.	60 m masafagayuguri sh (daqiq)	57	9,6 ± 0,36	0,048	3,79	9	15,7 8	33	57,8 9	15	26,3 1
5.	1 daqiqa davomida arg'amchida sakrash (marotaba)	57	85,77 ± 6,26	0,82	7,30	25	43,8 5	27	47,3 6	5	8,77


«Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sport sinovlarini IV yosh toifasi talablarini “60 m masofaga yugurish” sinovining III daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 26,3 foizi, qizlarning 54,8 foizi bajardi, II daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 57,8 foizi, qizlarning 45,1 foizi bajardi, I daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 15,7 foizi, qizlar 2,2 foizi bajardi.




O'rta arifmetik qiymat o'g'il bolalar uchun ($\bar{x}=9,6$) qiymati va qizlar uchun ($\bar{x} = 10,4$) bu qiymat JTDSS to'rtinchi yosh toifasi talablari III darajasi talablariga mos keladi.

“Turgan joyidan uzunlikka sakrash” sinovining III daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 43,8 foizi, qizlarning 48,3 foizi bajardi, II daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 40,3 foizi, qizlarning 48,3 foizi bajardi, I daraja topshiriq

talablarini o'g'il bolalarning 15,7 foizi, qizlarning 3,2 foizigina bajara olishdi. O'rta arifmetik qiymat o'g'il bolalar uchun ($\bar{x}=189,2$) qiymati va qizlar uchun ($\bar{x}=157,2$) bu qiymat JTD sport sinovlari to'rtinchi yosh toifasi talablari III darajasi talablariga mos keladi.




“Baland va past turnikda tortilish” sinovining III daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 28,1 foizi, qizlarning 25,8 foizi bajardi, II daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 57,9 foizi, qizlarning 74,2 foizi bajardi, I daraja topshiriq talablarini o'g'il bolalarning 14,8 foizi, qizlar esa bajara olishmadi.




O'rta arifmetik qiymat o'g'il bolalar uchun ($\bar{x}=8,15$) qiymati JTDSS to'rtinchi yosh toifasi talablari III darajasi talablariga mos keladi, qizlar uchun ($\bar{x}=12,3$) bu qiymat JTD sport sinovlari to'rtinchi yosh toifasi talablari II darajasi talablariga mos keladi.

“Tennis to‘pini uloqtirish” sinovining III daraja topshiriq talablarini o‘g‘il bolalarning 43,8 foizi, qizlarning 22,5 foizi bajardi, II daraja topshiriq talablarini o‘g‘il bolalarning 47,3 foizi, qizlarning 41,9 foizi bajardi, I daraja topshiriq talablarini o‘g‘il bolalarning 8,7 foizi, qizlarning 35,4 foizi bajardi.



O‘rta arifmetik qiymat o‘g‘il bolalar uchun ($\bar{x}=33,2$) qiymati JTD sport sinovlari to‘rtinchi yosh toifasi talablari III darajasi talablariga mos keladi, qizlar uchun ($\bar{x}=24,5$) bu qiymat JTD sport sinovlari to‘rtinchi yosh toifasi talablari II darajasi talablariga mos keladi.

“Bir daqiqa davomida arg‘amchida sakrash” sinovining III daraja topshiriq talablarini o‘g‘il bolalarning 8,7 foizi, qizlarning 35,4 foizi bajardi, II daraja topshiriq talablarini o‘g‘il bolalarning 47,3 foizi, qizlarning 38,7 foizi bajardi, I daraja topshiriq talablarini o‘g‘il bolalarning 43,8 foizi, qizlarning 25,8 foizi bajardi.



O‘rta arifmetik qiymat o‘g‘il bolalar uchun ($\bar{x}=85,7$) qiymati va qizlar uchun

($\bar{x}=79,4$) bu qiymat JTD sport sinovlari to'rtinchi yosh toifasi talablari II darajasi talablariga mos keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari" test majmuasining IV to'rtinchi yosh toifasi I darajasi me'yoriy talablariga javob beradiganlarning foizi juda kam.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari va ularning qiyosiy tahliliga asosan shuni ta'kidlash joizki, "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari test majmuasining standartlarini amalga oshirish natijalariga ko'ra test me'yorlarini topshirgan Farg'ona shahar umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligining boshlang'ich darajasi yuqori emas, ya'ni o'g'il bolalar uchun 60 m masofaga yugurish, baland turnikda tortilish, tennis to'pini uloqtirish sinov test me'yorlari qiyinlik qildi. Qiz bolalar uchun 60 m masofaga yugurish, past turnikda tortilish, turgan joyidan uzunlikka sakrash sinov test me'yorlari qiyinlik qildi. Bunga sabab eski "Alpomish va Barchinoy" test meyorlariga qaraganda yangi "Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari" test majmuasining me'yorlarini qiyinligi.

O'quvchilar tomonidan "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari test majmuasining me'yoriy talablarini bajarishga har tomonlama tayyorgarlik ko'rish uchun maktabda jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasini doimiy ravishda kuzatib boorish va o'rganish tavsiya etiladi. Bu holda, optimal metodologiyani aniqlash va JTD sport sinovlari majmuasiga muvofiq darslarni tayyorlash va o'tkazishni tashkil etishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Shuningdek, maktab o'quvchilarini erishish qiyin bo'lgan JTD sport sinovlari majmuasini amalga oshirishga mustaqil tayyorlash uchun uslubiy chora-tadbirlar (qo'llanmalar, tavsiyalar) ishlab chiqish kerak. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini tizimli o'rganish, standartlarni amalga oshirish natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish yangi "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari test majmuasining eng muhim vazifalarini hal qilishda yordam beradi.

REFERENCES

1. Мамаджанов Н. М. Зависимость проявлений двигательных способностей от особенностей морфологического развития школьников. Автореф. дис. канд. М., 1981 ,22 с.
2. Mamadzhonov N. M. Relationship of age and dynamics of physical development and preparedness of 6-7 years old children in fergana//European Journal of Research

and Reflection in Educational Sciences, Vol. 8 No. 12, 2020 ISSN 2056-5852.

3. Ханкельдиев Ш.Х., Педагогические особенности физического воспитания учащейся молодежи в регионах с жарким климатом. Автореф. дисс. докт. пед. наук М. 1991 46с.

4. Сидикова, Г. С. (2022). Формирование здорового образа жизни у детей старшего дошкольного возраста. *Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали*, 2(1), 6-11.

5. Сидикова, Г. С., & Ибрахимович, Т. А. (2021). Formation of children's health culture as a social and pedagogical problem. *Conferencea*, 71-74.

Сидикова, Г. С., & Ибрахимович, Т. А. (2021). Formation of children's health culture as a social and pedagogical problem. *conferencea*, 71-74.

6. Tolametov A.A., Mamadjanov N., Sport metrologiyasi [Matn]: O'quv qo'llanma//–Toshkent: «Umid Design», 2022. – 252 b.

7. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari// “Fan sportga” ilmiy-nazariy jurnal, № 4, 2021, 59-62 betlar.

8. Tolametov A.A., & Yusupkhanova F.A. (2021). The difficult problem of growing athletes among women living in rural areas and border territories of the republic of uzbekistan. *current research journal of pedagogics*, 2(09), 136–141. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-09-30>